



A. L. QOZONCHINING BADIY MAHORATI VA UNING O'ZBEKCHA TARJIMALARIDA AKS ETISHI

Juraqulov Quvonchbek Naim o'g'li
TDSHU va O'zJOKU stajyor-o'qituvchisi
Tel: +998939946461;
Email: juraqulovquvonchbekg@mail.com

Annotatsiya

Ahmad Lutfi Qozonchining "O'gay ona" asari tarjimalarini tahlil qiluvchi ushbu maqola badiiy asar tarjimasining nozik jihatlari va tarjimon mahoratining muhimligini atroflicha yoritadi. Maqolada o'quvchining asar bilan ruhiy bog'liqligi, yozuvchi va tarjimonning ijodiy jarayondagi o'rni ta'kidlanadi. Muallif tarjimonda ikki tilni chuqur bilish, ijodkorlik iste'dodi va badiiyat qonun-qoidalarini tushunish shart ekanligini olimlarning fikrlariga tayanib asoslaydi. Maqolada Ahmad Lutfi Qozonchining uslubiy xususiyatlari, xususan, asar tilining soddaligi, arxaik so'zlardan foydalanishi, kinoya va ma'no ko'chirishlarning kamligi hamda o'xshatishlarga moyilligi misollar orqali ko'rsatib berilgan. Tarjima jarayonida yuzaga keladigan muammolar va muvaffaqiyatli yechimlar tahlil qilinadi. Jumladan, iboralar, maqollar, o'xshatishlar va personajlar nutqini tarjima qilishdagi aniqlik, qisqartirish usulining oqibatlari atroflicha muhokama qilinadi. Ba'zi tarjimalarda aslyatdagi ma'no, uslub va badiiy mahoratning to'liq aks etmagani, shuningdek, milliy o'ziga xoslikning saqlanmaganligi tanqidiy tahlil qilinib, muqobil tarjima variantlari taklif etiladi.

Kalit so'zlari: badiiy tarjima, aslyat matn, tarjima matni, ijodiy yondashuv, turg'un iboralar, maqol, idioma, aldoqchi so'zlar, tarjimashunoslik, muallif uslubi.

O'quvchining qalbi va tafakkuri bilan badiiy asar ichida yashaydi. Asar qahramonlarini baxtga yetadigan bo'lsa, xursandchilik qilishadi, agar asar qahramonlarining boshiga kulfat tushadigan bo'lsa, qayg'uga botishadi. Yozuvchi bilan uchrashib, u bilan suhbat qurgan o'quvchi u yozgan asarlari yanada yaxshiroq tushunar ekan. San'atkorning teran fikri, inja his-tuyg'ulari, oliy maqsadi o'quvchi



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th May, 2025

tomonidan qayta his-qilinmas ekan, anglash, tushunish maromiga yetmagan hisoblanadi. Asarning tili soda, o'qilishga qulay bir tilda yozilmas ekan, u asar o'quvchilar tomonida sevilib o'qilmaydi. Lekin asar tushunarli tilda, odamni zeriktiradigan tarzda yozilmagan, o'quvchini o'ziga jalb qila oladigan ifodalar bilan yozilgan, asar tili ayni vaqtda xalq ishlatadigan tilda yiroq yozilmagan bo'lsa, bunday asar har qanday davrda ham o'z o'quvchilarini topa oladi.

Yozuvchining mahorati qanchalik muhim hisoblansa, u asar tarjimoni ham shu qadar muhim hisoblanadi. Badiiy asarlar tarjimasi bilan shug'illanish uchun asar tilini va tarjima qilinadigan tilni bilishning o'zi kifoya qilmaydi. Badiiy asar tarjimasi bilan shug'illanish uchun tarjimonda ijodkorlik va badiiyat ilmi bo'lishi kerak. Shunday bo'lgani uchun ham badiiy asar tarjimasi bilan ko'pincha shoir-yozuvchilar shug'illangan. Tarjimaning turlari ko'p: badiiy asarlar tarjimasi, ilmiy-texnik adabiyotlar tarjimasi, kinofilmlar tarjimasi. Shundan kelib chiqib tarjimon o'ziga mos yo'nalishni tanlaydi. Yozuvchi o'z asarlarida hayotdan ilhomlanib fikrlagan yoki ko'rgan voqealarini qog'ozga tushuradi. Tarjimon esa yozuvchining yozgan fikrlari, his-tuyg'ularini boshqa til vositasi orqali yangidan yaratadi. Agar tarjimon bir yozuvchining asarini juda ham mohirlik bilan tarjima qilsa, tarjima asarni o'qigan o'quvchi uchun u yozuvchi yaxshi ekan degan fikr dunyoga keladi. Aksi holda esa juda ham mohirlik bilan yozilgan bir asarni yaxshi tarjima qila olmasa, o'quvchilar hayolida u yozuvchi haqida yomon fikr uyg'onadi. Shunday ekan badiiy asar tarjimasi bilan shug'illanadigan tarjimonlar quyidagilarni bilishi va ega bo'lishi kerak: har ikkala tilni – asliyat va tarjima tilini chuqur bilishi, ijodkorlik iste'dodiga ega bo'lish bilan birga badiiyat qonun qoidalarini ham bilishi kerak.

Tarjimon mahorati tarjimonning tarjima qilishdagi ustaligi, mohirligi, san'atkorligi. Bunga har ikki tilni birday bilish, ijodkorlik iste'dodi, tajriba va malaka orqali erishiladi. Ijod zahmatini chekishda tarjimonning ham qismati muallifnikidan qolishmasligini bot-bot ta'kidlab, obraz, vaziyat va ruhiy holat ifodasi taqozosiga ko'ra uning hamisha yetti qat kontekstning tagiga tushib, ayni kerakli so'zni topishiga to'g'ri kelishiga e'tibor qaratgan G'.Salomovning yozishicha, "agar bir asarni turmush tajribasi, ma'lumoti, mahorati, so'z boyligi har xil bo'lgan ikkita tarjimon bir tilga ag'darsa, bir-biridan jiddiy farq qiladigan ikkita deyarli boshqa-boshqa asar hosil bo'lishi ham shu sabablidir".



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th May, 2025

Ahmad Lutfi Qozonchining ko'pgina asarlari diniy-ma'rifiy hisoblanadi, shuning uchun ham uning asarlarida diniy terminlar, biroz bo'sa-da arxaik so'zlar uchramiz. Baddiy mahorati nimalarda ko'zga tashlanadi? Avvalambor, asar tilining yingilligida desak xato bo'lmaydi. Quyidagi parchaga e'tibor beraylik:

Güneşin en fazla sevdiği zamanın, ilkbaharın başlangıcı veya güz mevsiminin sonlan olduğunu söylemeye ihtiyaç var mıdır? Birçok insan, ilkbaharda onu, askerden gelen oğullarını veya gurbete gelin ettikleri kızlarını karşılayan bir anne-baba gibi karşılarlar [Kazancı A. Üvey anne. 11].

Tarjimasi: Inson quyoshni bahorning ilk kunlarida va kuzning so'ngida har qachongidan ko'proq sevishining sababini alohida gapirishga hojat yo'q. Ayoq qishda so'ng bahorning iliq tafti askarlik xizmatidan qaytgan o'g'lini yoki uzoq ulkaga kelin bo'lib tushgan qizini ota-ona ko'rganday qalblariga xursandchilik bag'ishlab kirib boradi [A.L.Qozonchi. Eng sara asarlari. 9].

Yuqoridagi parchada arxaik so'z hisoblangan güz (kuz) so'zi mavjud bugungi kunda zamonaviy turk tilida bu so'z deyarli ishlatilmaydi, uning o'rniga sonbahar so'zi ishlatiladi. Bu misoldan shuni aniqlashimiz mumkin: yozuvchining uslubiga eskirgan so'zlarni ishlatish, sodda tilda yozish, atroflicha tushuntirish, kinoya va ma'no ko'chirishlar kam uchrashi. Yozuvchining uslubiga yana o'xshatishlar ham xos deyishimiz mumkin.

Ahmat Lutfi Qozonchining baddiy mahoratini o'zbekchaga tarjimon mahirlik bilan quyidagi gaplar tarjima qilgan:

Akşamleyin “Sa..” Hanıma karşı, evlendiğinden beri ilk defa doğru ve acı olarak söylediği sözlerin sırrı buradaydı [Kazancı A. Üvey anne. 113].

Tarjimasi: Oqshom uyga qaytganida, ilk bor Sodiyaxonimga qarshi achchiq gapirishining boisi shu edi. [A.L.Qozonchi. Eng sara asarlari. 85].

Tarjimasi: Oqshom Sodiyaxonimga qarshi ilk bor achchiq gapirishining siri shunda edi [A.L.Qozonchi. O'gay ona. 81].

Bu gapning birinchi tarjimasi juda ham mohirlik bilan tarjima qilingan deya olamiz, lekin ikkinchi tarjima uchun bu fikrlarni bildirishimiz biroz noo'rin bo'ladi. Asliyat matnda asar qahramoning ismini oshkor qilmaslik maqsadida uning ismini to'liq tilga olmagan muallif, lekin tarjimon buni inobatga olmagan tarzda tarjimada uning



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th May, 2025

ismini to'liq ravshda berib o'tadi. Buning boisi o'quvchi uchun tushunmovchilik keltirib chiqarishini oldini olish bo'lgan deb hisoblaymiz.

Fatma Hanım bunları soğukkanlılıkla, güler yüzle dinledi, sonra [Kazancı A. Üvey anne. 118].

Tarjimasi: Fotimaxonim ochiq yuz bilan, vazmin holda tingladi [A.L.Qozonchi. Eng sara asarlari. 89].

Yuqoridagi gapning tarjimasi haqida ham ijobiy fikr bildirishimiz lozim, chunki tarjimon bu gapni juda mohirlik bilan tarjima qilgan.

Fakat bütün Türkiye'de en aşağı her gün iki yüz bini aşkın bir topluluğun vaktini sinemada geçirdiği düşünülürse Hüseyin'in arkadaşlarına yapabileceği iyilik devede kulak bile sayılmazdı [Kazancı A. Üvey anne. 164].

Tarjimasi: Lekin bugün Turkiyada har kuni ikki yuzmingdan ziyod kishi vaqtini kinoda o'tkazishini e'tiborga olsak, Husayinning o'rtog'lariga qiladigan yaxshiligi dengizdan tomchi deyish mumkin. [A.L.Qozonchi. Eng sara asarlari. 127].

Yuqoridagi gapda ishlatilgan devede kulak bile sayılmazdı iborasining ma'nosi katta bir qism uchun bir kichik parcha, odatda kichkina ahamiyati u qadar buyuk bo'lmagan yoki ahamiyatli qilishga zarurati bo'lmagan hodisalar uchun ishlatilgan, bu hodisani ahamiyatli bir hodisa sifatida qaramaslik va vaqtinchalik bir muammo sifatida qaralish kerakligini bildirishdir. İbora so'z erkin birikma bilan tarjima qilingan, shunday bo'lishiga qaramay tarjimon asliyat matndagi iboraning ma'nosini mohirlik bilan chiqarib bera olgan.

Adil Beyin tam can damarına basmıştı şimdi. Sevmek ne demek? Çıldırasıya sevmiştı onu [Kazancı A. Üvey anne. 66].

Tarjimasi: u Odilbekning nozik yeridan olgandi. Sevishga u telbalarcha sevardi [A.L.Qozonchi. Eng sara asarlari. 50].

Tarjimasi: Odilbek jon joyidan ushlangandi. Sevmoq – ne degani? Telbalarcha sevardi [A.L.Qozonchi. O'gay ona. 46]

Yuqoridagi parchada damarına basmak iborasi mavjud bu ibora bir odam uchun ahamiyatli va muhim bo'lgan narsa uchun g'azablantirish ma'nosini bildiradi. Yuqoridagi ikki tarjima ham asliyatdagi ma'noni chiqarib bera olgan. Badiiy asarda ko'plab maqol va iboralardan foydalanish yozuvchining tilni va xalqning chuqur madaniyatini bilganligini aks ettiradi.



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th May, 2025

Hem mevlidi Hayriye Hanım ruhuna bağışlamak üzere okutacağım. Ne olursun beni kırma. Mutlaka beklerim. [Kazancı A. Üvey anne. 85].

Tarjimasi: Mavlutni Xayriyaxonim ruhiga bag‘ishlab o‘qityapman. Boring. Meni xursand qilasiz. Kutaman [A.L.Qozonchi. Eng sara asarlari. 65].

Tarjimasi: Mavlutni Xayriya xonim ruhiga bag‘ishlash uchun o‘qitmoqchiman. Boring. Meni ranjitmang. Kutaman [A.L.Qozonchi. O‘gay ona. 60]

“Antonimik tarjima – shakli bir-biriga zid, ammo ma’nolari monand bo‘lgan birikmalar. Masalan, rus tilida “nima bo‘lsa, shu bo‘lsin”, “mening parvoyimga kelmaydi” degan ma’noda “хоть трава не расти” degan frazeologik butunlik ishlatiladi. Buni “menga desa, o‘t o‘smasin” deb tarjima qilsa, o‘zbekchada qoyilmaqom chiqmaydi. Shuning uchun “menga desa, g‘ovlab ketsin!” deb o‘giriladi. Yoki rus va tojik tillaridagi bir qo‘ldan sado chiqmaydi mazmunidagi “Одной рукой в ладоши не хлопнешь” hamda “Yak dast besado ast” maqollari o‘zbek tiliga “Qars ikki qo‘ldan chiqadi” ekvivalenti bilan almashtiriladi va hokazo”. Shunday tarjima usulidan yuqoridagi gapda foydalanilgan. Ne olursun beni kırma jumlasini birinchi tarjimada boring, meni xursand qilasiz shaklida tarjima qilingan, lekin asliyatdagi bu jumla bo‘lishsiz shaklda bo‘lib tarjimon bu gapni bo‘lishli gap bilan tarjima qilgan. Ikkinchi tarjimada esa asliyatga muvofiq qilib bo‘lishsiz gap bilan tarjima qilgan: boring, meni ranjitmang shaklida. Hem mevlidi Hayriye Hanım ruhuna bağışlamak üzere okutacağım gapini birinchi tarjimon mavlutni Xayriyaxonim ruhiga bag‘ishlab o‘qityapman shaklida tarjima qilgan. Asliyatda bu gapning kesimi kelasi zamonda turibdi, lekin tarjimon hozirgi zamon fe‘li bilan tarjima qilgan. Ikkinchi tarjimada mavlutni Xayriyaxonim ruhiga bag‘ishlash uchun o‘qitmoqchiman shaklida asliyatga muvofiq shaklda tarjima qilgan. Bu ikki tarjimada ikkinchi tarjimaning chiroyliroq va asliyatga yaqin tarjima deyishimiz mumkin. Gapning kesimi ko‘p hollarda asosiy ma‘noni bildirib keladi, shuning uchun tarjima jarayonida bunga e‘tibor berish kerak. Quyidagi gapda ham jumla bo‘lishli, lekin tarjimon bu gapni bo‘lishsiz qilib tarjima qilgan. Bu bilan bu tarjimani xato deb hisoblamaymiz, aksincha tarjima jarayonida zid tarjima usulidan foydalanganiga urg‘u berib o‘tmoqchimiz:

Ben o zevk ve heyecanı bilirim [Kazancı A. Üvey anne. 157].

Tarjimasi: – Shu lazzatni bilmay qo‘yaqolay [A.L.Qozonchi. Eng sara asarlari. 120].



Bu jumla aslida men u zavq va hayajonni bilaman shaklida tarjima qilinishi kerak edi, agar so‘zma-so‘z tarjima qilish usulidan foydalanganda. Tarjimon bunday yo‘l tutmagan va tarjimaning ma’nosini yanada yaxshiroq chiqishiga xizmat qilgan.

Ama senin ichin gece-gunduz dua eden, seni, senden fazla düşünmeye çalışan bir anneyi teahmin ederim ki bulamazsin. [Kazancı A. Üvey anne. 145].

Tarjimasi: Ammo sen uchun kecha-kunduz duolar qilib, senga joni fido bo‘lgan onani qayerdan topasan?! [A.L.Qozonchi. Eng sara asarlari. 111].

Bundan oldingi misollarimizda bo‘lganidek bu misolda ham gap kesimi bo‘lishsiz va tarjimon bu gapni bo‘lishli gap qilib tarjima qilgan. Seni, senden fazla düşünmeye çalışan bir anneyi teahmin ederim ki bulamazsin parchasi biroz boshqacha tarjima qilingan. Seni sendan ko‘p o‘ylaydigan bir onani topa olmaysan deb o‘ylayman deb tarjima qilganda maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Ma’no jihatdan to‘g‘ri, lekin yozuvchining badiiy mahoratini ham ko‘rsatib berish tarjimonning asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Yana shunday misollardan biri bu darak gapni inkor gap qilib tarjima qilingan:

“Madem ki, el kapılarında dilenci değiliz, bunun şükranesi olarak” un, odun bulamayan, halini kimseye arz edemeyenleri arayıp bulamazsak Allah bizden soracaktır [Kazancı A. Üvey anne. 178].

Tarjimasi: Modomiki, el eshigidan tilanchi emas ekanmiz, bunga shukrona o‘laroq, un, o‘tin topolmagan, holini birovga arz etolmaganlarni yo‘qlamasak, yordam bermasak, Allohning so‘roqlariga qanday javob beramiz? [A.L.Qozonchi. Eng sara asarlari. 139].

Çalılar arasında kaçırıldığı avının peşinden koşan bir avcı gibi önüne kattığı yıldızları kovalayan ay, bazen bulutlar arasında bir müddet saklanıyor, sonra tekrar yeni bir ümit ve azimle ileri atılıyordu [Kazancı A. Üvey anne. 91].

Tarjimasi: Butalar orasida qochirgan ovi oldidan chiqqan ovchiday yulduzlarni quvlagan oy ba’zan birpas bulutlar orasiga yashirilib, yana umid va shiddat bilan olg’a intilardi [A.L.Qozonchi. Eng sara asarlari. 70].

Yuqoridagi gapda o‘xshatish yo‘li bilan holatni ifoda qilar ekan yozuvchining mahoratini ko‘rishimiz mumkin. Bu gapni tarjimon juda mohirlik bilan tarjima qilgan. Bu yerdagi av so‘zi ov so‘zi bilan tarjima qilingan, o‘zbek tilida av emas,



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th May, 2025

belki o'lja deganda yana ham yaxshiroq bo'lar edi. Quyidagi gapda ham o'xshatish uchraydi va tarjimon bu gapni ham mahorat bilan tarjima qilgan:

Fakat bu kadarcik zamanda, onda senelerin biriktirdigi aciyi dindirmek, onun yumruk kadar kalbinde kümeleşen derde deva bulmak ne mümkün? [Kazancı A. Üvey anne. 104].

Tarjimasi: Biroq qisqa vaqt ichida uning mushtday qalbida yillar davomida yig'ilib qolgan dardu alamlarni yo'qotish mumkinmi? [A.L.Qozonchi. Eng sara asarlari. 79].

Tarjimasi: Faqat qisqa bir vaqt ichida, uning mushtday qalbida yig'ilib qolgan dunyoday dardni ketkazish mumkinmi? [A.L.Qozonchi. O'gay ona. 74-75]

Müşterinin gelmesi, sobanın karşısında ter döken adamın, kapı açılınca alnına çarpan soğuk havayla serinlenmesi gibi geldi ona [Kazancı A. Üveyanne. 111].

Tarjimasi: Yaxshiyamki, shu payt xaridor kirib qoldi. O'zini xuddi ayovsiz quyosh tig'idan salqinga o'tganday his qildi [A.L.Qozonchi. Eng sara asarlari. 84].

Tarjimasi: Xaridorning kirishi unga quyosh tig'ida terga botgan pdamga salqin havoning tegishiday ta'sir qildi [A.L.Qozonchi. O'gay ona. 80]

Quyidagi gaplarda tarjima usullaridan bo'lgan qisqartirish usuli orqali tarjima qilingan misollarni ko'rib chiqamiz:

Hüseyin iki senelik tahsil hayatında, okul itibarını koruyan, terbiye ve takdirle karşılanması gereken bir çalışma diye özetleyebileceğimiz başarısını yine annesinin dikkarli ve şuurlu yardımıyla elde etti [Kazancı A. Üvey anne. 142].

Tarjimasi: Husayn ikki yillik tahsilni onasining e'tibori va yordami bilan muvaffaqiyatli tugatdi [A.L.Qozonchi. Eng sara asarlari. 109].

Kendi hakkında söylenmiş dahi olsa buna kulak verip dinlemekten nefret ederdi. Esasında bu meseleyi de sonuna kadar sabırla dinlemişti. Bunu dinlerken onların gördüğü fakat kendinin farkına varmadığı bir kusurum var mı diyerek sözün sonunu beklemişti [Kazancı A. Üvey anne. 119].

Tarjimasi: O'zi haqidagi g'iybatni "ular bilib, o'zim xabarsiz qolgan kamchiligim bormikin", deb eshitdi [A.L.Qozonchi. Eng sara asarlari. 89].

Tarjimasi: O'zi haqidagi g'ibatni berilib tinglashni xush ko'rmasdi. Shuning uchun bu gapni so'ngiga qadar sabr bilan tingladi. Tinglarkan, "ular bilib, o'zim xabarsiz qolgan qusurim bormikin", deya gapning oxirini kutdi [A.L.Qozonchi. O'gay ona. 85-86]



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th May, 2025

Bu arada hafiften feryat eden dalların hışirtısı ve onları teselli eder gibi seslenen fakat haşmetli bir ifadeye bürünen rüzgârın uğultusu insana, gündüzün duyulması kolay olmayan hisler veriyordu [Kazancı A. Üvey anne. 91].

Tarjimasi: Bu manzara kunduz kunlari his qilish qiyin bo'lgan tuyg'ularni qo'zg'ardi. [A.L.Qozonchi. Eng sara asarlari. 69].

Qisqartirish tarjima usulidan keng foydalaniladi, lekin bunday qilish orqali yozuvchining uslubiga putur yetkazib qo'yish ham hech gap emas, shunday ekan qisqartirish usulidan ko'p foydalanmaslik orqali badiiy asar tarjimasida chiroyli tarjima asarlari yaratish mumkin.

Hakikati so'ylemek gerekirse erkegi yenen kadının fendi, Yılmaz'a, çiftlikte artıkla beslenen bir köpeğin rahatı kadar bir şey bile bırakmamıştı [Kazancı A. Üvey anne. 113].

Tarjimasi: Qani halovat, qani u huzur? [A.L.Qozonchi. Eng sara asarlari. 85].

Tarjimon yuqoridagi gapni qisqartirish usuli bilan tarjima qilgan. Bu usuldan foydalanishi tufayli asarning badiiyligiga putur yetgan. Asliyat matnda yozuvchi til imkoniyatlaridan keng foydalangan holda o'xshatish yo'li bilan huzurning yo'qligini juda chiroyli ta'rif qilgan, lekin tarjimon asliyatga muvofiq tarjima qilmagan. Yana bir xususiyat asliyat matnda darak gap tarjimada so'roq gap shaklida tarjima qilingan. Yuqoridagi gapni quyidagicha tarjima qilish maqsadga muvofiq bo'lar edi: to'g'risini aytganda erkakni yengan ayolning hiylasi Yilmazga fermada qoldiqlar bilan oziqlangan itday rohat bermadi.

A.L.Qozonchining "O'gay ona" asari maishiy asar hisoblanadi. Tarjimada personajlar nutqi tarjimasi ham juda muhim jihatlardan biri hisoblanadai, chunki asar qahramonlarining haqiqiy tasvirini chizadigan xususiyatdir. Bunga misol tariqasida asar qahramoni ziyoli qatlam vakili bo'lsa, uning nutqida ko'p odamlar ishlatmaydigan so'zlar ishlatilish, asar qahramonining ma'lum bir hududdan ekanligini bildirish uchun o'sha hudud shevasidan foydalanish, asar qahramonining yosh bola ekanligini bildirish uchun gap qurulishida va aytishda qiyinchilik to'g'diradigan so'zlarda ishlatishda qiynalishi kabilarni ifodalasa, asarning qiymati oshadi. Abdulla Qahhor bu xususiyatga katta e'tibor qaratgan, hatto asarning kulminatsion nuqtasini personajlar nutqida ifodalagan: bemor asarida Sotiboldining qizining Xudoyo ayamdi daydiga davo beygin... gapi hisoblanadi. Shuning uchun



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th May, 2025

ham qahramon nutqining tarjimada to‘g‘ri berilishi muhimdir. Tarjimon personajlar nutqini quyidagi o‘rinlarda juda mohirlik bilan tarjima qilgan:

Ne getirdin bana baba [Kazancı A. Üvey anne. 46].

Tarjimasi: Nima olib keldingiz, menga, ota [A.L.Qozonchi. Eng sara asarlari. 35].

Bırak beni... bırak beni.. [Kazancı A. Üvey anne. 75].

Tarjimasi: qo‘ying meni, qo‘yib yuboring. [A.L.Qozonchi. Eng sara asarlari. 57].

Nedir istediğin Fatma Hanım? [Kazancı A. Üvey anne. 63].

Tarjimasi: Nimani istaysiz Fotima xonim? [A.L.Qozonchi. Eng sara asarlari. 48].

Yozuvchi nima uchun aynan shu shaklda qahramonni gapirtirgan? Degan savol tug‘ilishi tabiiy. Shunday ekan kaç yaşında başladın sigara içmeyi Adil Bey [Kazancı A. Üvey anne. 69] gapini tarjimasini chekishni necha yoshingizdan boshlagansiz? [A.L.Qozonchi. Eng sara asarlari. 53]. deb emas, balki necha yoshdan boshlagansiz sigaret chekishni, Odil Bey? deb tarjima qilganda maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Yozuvchining badiiy mahorati tarjima jarayonida to‘laqonli ko‘chmagan gaplar ham mavjud bularga quyidagi gaplarni misol qilib olsak bo‘ladi:

Şimdi ise bu mesele gün geçtikçe içinde büyüyor, bütün yollar bu evlenmenin çocuklara bir üvey anne bulma manasında birleşiyordu. [Kazancı A. Üvey anne. 44]

Tarjimasi: Endi har nima qilmasin, uylanishi zarurligi kelib chiqardi. Bu bolalarga o‘gay ona topish kerak edi. [A.L.Qozonchi. Eng sara asarlari. 34].

Asliyatda berilgan ma‘noni tarjimada ham bera olgan, lekin asliyatdan uzoqlashmagan holda tarjima qilish lozim. Yuqorida ham ta‘kidlaganimdek, yozuvchi uslubining o‘ziga xosliklari orasida yozuvchi tili ham turadi, bu parchada mavjud bo‘lmagan jumla tarjima qilingan: Endi har nima qilmasin, bunday gap asliyatda berilmagan. Bu gapni quyidagicha tarjima qilganda maqsadga muvofiq bo‘lar edi: Endi esa bu masala kun o‘tgan sayin kattalashar, hamma yo‘llar bu nikohning bolalarga bir ona topish ma‘nosi atrofida birlashar edi.

Her gelen onun iki çocukla baş edemeyeceğinden söz ediyor, düşüncesizlik ettiğini söyleyenler oluyordu. [Kazancı A. Üvey anne. 32]

Tarjimasi: Ular yetim ko‘nglini olish oson emasligi, o‘ylamasdan ish tutyotganligini aytib, kuyinishardi. [A.L.Qozonchi. Eng sara asarlari. 27].



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th May, 2025

Asliyat matnda ko‘nglini olish, kuyinish kabi so‘zlar umuman yo‘q, bu esa tarjimon tarafidan qo‘shimcha ravishda kiritilgan. Bunday ish tutish natijasida asliyatdagi asosiy ma‘no yo‘qoladi. Yozuvchining bu yerda ishlatgan ifodalari ayanan tarjimaga ko‘chishi maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Bu parchani quyidagicha tarjima qilish maqsadga muvofiq deb hisobladik: har bir kelgan odam unga ikki bolani uddalay olmasligini aytardi, o‘ylamasdan ish tutiyotganini aytganlar ham bor edi.

Bu arada alnında biriken terleri silmek üzere olan eli, bu terin soğuk olduğunu bildiriyordu. [Kazancı A. Üvey anne. 47]

Tarjimasi: Qo‘rquvdan sovuq ter bosgan edi. [A.L.Qozonchi. Eng sara asarlari. 36]. Muallif uslubiga xos bo‘lgan unsurlardan biri bu qanday tilda yozyotgani hisoblanadi. Bu parchada bir qahramonning holatini tasvirlagan tarjimon esa uni oddiygina qilib tarjima qilgan, umuman olganda bu xato hisoblanmaydi, lekin yozuvchining uslubini yo‘qotilishi sabab bo‘lishi mumkin. Bunga misol qilib Abdulla Qahhorning asarlarini boshqa tilga tarjima qilganda uning uslubini yo‘qqa chiqarib tarjima qilsa, u asarning qiymati ham yo‘qoladi. Bunga “Bemor” hikoyasining kulminatsiyon qismi bo‘lgan qizining “Xudoyo ayamdi daydiga davo beygin...” gapini to‘g‘rilab tarjima qilsa, u asarning qiymati anchagina pasayadi. Shuning uchun bu yerda ham holatni tasvirlagan bo‘lsa, holatni tasvirlab tarjima qilgan maqsadga muvofiq bo‘lgan bo‘lar edi. Biz quyidagicha tarjima beramiz: shu payt peshonasida to‘plangan terni artayotgan qo‘li terning sovuq ekanligini bildirar edi.

Fatma’nın üzüntüsünün derecesi hususunda bizim söz söyleme hakkımız olmamalıdır, gelin bunu telli duvağıyla baba ocağına veda etme acısını tadan gelin hanımlara bırakalım. Çünkü derdi ancak çekenler bilir. Geride kalanların anlatacakları hikayeden ibarettir [Kazancı A. Üvey anne. 51].

Tarjimasi: Qizning holatini faqat ota uyini tark etgan kelinlergina tushunadi. Uning qalbidagi g‘alayon, otashga hech kim bas kela olmaydi. [A.L.Qozonchi. Eng sara asarlari. 39].

Tarjimada ma‘no chiqarib berilgan, lekin bu parchada milliy o‘ziga xos so‘z hisoblangan tel (qizlar kelin bo‘lganda beliga qizil belbog‘ bog‘langan) va duvak (bu kelinlarning yopichig‘i) so‘zlarni umuman tarjima qilmasdan tashlab ketilgan, bu esa xato hisoblanadi. Asarning milliyligini saqlab qolish kerak edi. Bu parchani



quyidagicha tarjima qilgan maqsadga muvofiq bo'lar edi: Fotimaning qanchalik g'amginligi haqida gapirishga haqimiz yo'q, buni telli duvag'i bilan ota uyini tark etish hisini totgan kelinlarga qo'yib beraylik. Chunki dardni dard chekkan biladi. Qolganlarning aytadiganlari safsatadan iborat. Keyin telli va duvak so'zlariga izoh berilsa, juda yaxshi bo'ladi.

Sadeca sigaradan hirsini almiş, akşama kadar iki kapet sigaranın dumanını önce tertemiz hava alsun diye yaratılan ciğerlerine, sonra kirletme hakkına asla sahip olmadığı havaya üfürmüştü. Sabrının son sahifesine gelmiş, can sıkıntısı onu, etrafi sineklerle çevrili, elleri bağlı zavallı bir insan gibi bunalmıştı. Bu sırada teyzesi bahçeye çıktı. Onu görünce yaklaştı [Kazancı A. Üvey anne. 55].

Tarjimasi: kechgacha ikki quti sigaretni tugatdi. Ichida g'alayon ko'targan istirob kosasini to'ldirib borardi va bunga qarshi hech nima qila olmasdi. Yaxshiyamki, shu onda xolasi boqqa chiqdi. Uni ko'rib yaqinlashdi [A.L.Qozonchi. Eng sara asarlari. 42].

Tarjimasi: Kechgacha ikki quti sigaretni bulg'ashga also haqqi bo'lmagan toza havoga pufladi. O'chini undan oldi. Sabr kosasini to'ldiryozgan iztirob uni o'z-o'ziga atrofini o'ragan pashshalar talovida qo'llari bog'langan, bechorahol, g'arib ahvolda ko'rsatdi. Bu orada xolasi boqqa chiqdi. Uni ko'rib, yaqinlashdi [A.L.Qozonchi. O'gay ona. 38]

Yuqoridagi parchada sadeca sigaradan hirsini almiş, akşama kadar iki kapet sigaranın dumanını önce tertemiz hava alsun diye yaratılan ciğerlerine, sonra kirletme hakkına asla sahip olmadığı havaya üfürmüştü jumlası kechgacha ikki quti sigaretni tugatdi shaklida tarjima qilingan. İkkinchi tarjimada esa kechgacha ikki quti sigaretni bulg'ashga also haqqi bo'lmagan toza havoga pufladi shaklida tarjima qilingan. Ma'no jihatdan to'g'ri tarjima bo'lsa-da, asar muallifining uslubi va uning badiiy mahorati ham ma'no qadar muhim omil hisoblanadi, shunday ekan yozuvchi qanday yozgan bo'lsa, shunday tarjima qilinganda maqsadga muvofiq bo'lar edi. İkkinchi tarjimada ham birinchi tarjimada ham ma'lum bir gap qismlari tashlab ketilgan. Bunga qarshi hech narsa qila olmasdi gapi asliyatda aslida yo'q. Qahramonning holatini ifodalash uchun ba'zi holatlarni tilga olgan yozuvchining maqsadini tushunmagan tarjimon bu yerda xatolikka yo'l qo'ygan. Bu parchani quyidagicha tarjima qilganda yozuvchining badiiy mahorati va uslubini saqlab



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th May, 2025

qolgan bo‘lar edi: o‘chini sigaretdan olgan edi, kechgacha ikki quti sigaretni avvalo toza havo olishi uchun yaratilgan o‘pkasiga tortgan edi, keyin esa bulg‘ashga aslo haqqi bo‘lmagan havoga puflagan edi. Kuzning oxirgi xazonlari ham to‘kildi, iztirob uni artofi pashshalar bilan o‘ralgan va qo‘llari bog‘langan odamday his qildirar edi. O‘sha payt xolasi boqqa chiqdi. Uni ko‘rib yaqinlashdi.

Evinde, öz anneden farksız bir annenin şefkatiyle geçinip giden bu çocuğa öksüz olduğunu öğretmenin, onu ruhi yönden çökertmek olduğunu bilmemek ayıptır. Belki bu kadın da biraz düşünse söylediklerinin bu çocuğu sadeca üzeceğini, söylediği sözlerin hiçbir yaraya merhem olmayacağını anlayacaktı. Ama insan çok zaman yapar sonra düşünür. Önce düşünse de sonra yapsa ne olurdu? [Kazancı A. Üvey anne. 73-74].

Tarjimasi: Nahot, yetimlikni yuziga solib, bolaning ko‘nglini cho‘ktirish gunoh ekanligini anglamasa. Ammo inson avval so‘ylaydi, keyin o‘ylaydi. Avval o‘ylab, keyin so‘zlasa nima qilarkan? [A.L.Qozonchi. Eng sara asarlari. 55].

Tarjimasi: O‘z onasi borday mehr bilan qaralayotgan bu bolaga yetimligini bildirish uni ruhan cho‘ktirish ekanini bilmaslik aybdır. Balki u xotin ham bir oz o‘ylasa, so‘zlari bolani xafa qilishini bilgan bo‘larmidi?! Ammo inson avval so‘ylaydi, keyin o‘ylaydi. Bir ishni avval o‘ylamasdan qilib qo‘yib, keyin pushaymon bo‘ladi. Avval o‘ylab, keyin so‘ylasa, avval tushunib, keyin ado etsa ne bo‘larkin? [A.L.Qozonchi. O‘gay ona. 51].

Bu tokat sanki Fatma Hanıma vurulmuştu. Adil Bey onun yemekten çekildiğini görünce: [Kazancı A. Üvey anne. 89].

Tarjimasi: Fotimaxonim ovqatni nari surdi [A.L.Qozonchi. Eng sara asarlari. 68].

Tarjimasi: Fotimaxonim yemakdan chekinadi [A.L.Qozonchi. O‘gay ona.63]

Yuqoridagi parchada yozuvchi asar qahramoning holatini ta’riflash maqsadida bu tokat sanki Fatma Hanıma vurulmuştu gapini bayon qilgan. Tarjimon bu gapni tarjima jarayonida tashlab ketgan. Keyingi Adil Bey onun yemekten çekildiğini görünce gapini ham birinchi tarjimada Fotimaxonim ovqatni nari surdi shaklida ikkinchi ratjimada esa Fotimaxonim yemakdan chekinadi shaklida tarjima qilingan. Ikkinchi gapni har ikkala tarjimada ham asosiy ma’no, ya’ni ovqat yeyishdan to‘xtash ma’nosi chiqarib berilgan, lekin asliyatda biroz boshqacha ifoda usulidan foydalanganligi uchun yozuvchining bayon qilganidek tarjima qilganda maqsadga



muvofoiq bo‘lar edi. Bu parchani quyidagicha tarjima qilish asliyatga yaqin tarjima bo‘lar edi: bu tarsaki xuddi Fotima xonimga o‘rilganday edi. Odil bey uning ovqat yeyishni to‘xtatganini ko‘rgach.

Son olarak üç-dört gün evvel pantolonunun birkaç yamaklıklılı olmasına rağmen temizlenmiş ve ütülenmiş olması işi açığa çıkarır gibi oldu [Kazancı A. Üvey anne. 106].

Tarjimasi: Uch-to‘rt kun avval yirtiq shimi tikilgan, yuvilgan, dazmollanganligi uni haqoratlaganday bo‘ldi [A.L.Qozonchi. Eng sara asarlari.80].

Tarjimasi: Uch- to‘rt kun avval yirtiq shimini tikilgan, yuvilgan, dazmollangan ko‘rishini uni yerga urganday bo‘ldi [A.L.Qozonchi. O‘gay ona. 75]

Yuqoridagi papda muallif açığa çıkarmak (bu iboraning uch xil ma‘nosi bor: 1. Fosh bo‘lmoq, ko‘z o‘ngiga chiqmoq. 2. Kimyoda ikki element ta’sirida boshqa bir element tashqariga chiqib qolishi. 3. İşdan chiqarilish) iborasi ishlatilgan. Bu iborani birinchi tarjimada haqoratlaganday bo‘ldi, ikkinchi tarjimada esa yerga urganday bo‘ldi shaklida tarjima qilgan. İkki tarjima ham muallif asliyatda ifodalagan ma‘noni chiqarib bera olmagan. Yuqoridagi gapni quyidagicha tarjima qilganda maqsadga muvofoiq bo‘lar edi: uch-to‘rt kun avval shimining bir nechta yamoqli bo‘lishiga qaramay yuvilgan va dazmollanganligi bo‘lib o‘tgan ishni ayon qilganday bo‘ldi. Nima uchun ibora to‘g‘ri tarjima qilinishi kerak? Chunki yozuvchining badiiy mahoratini ko‘rsatib turadigan omillardan biri bu ibora, maqol, badiiy san’atlardan foydalanishdir.

Bir mahallede dedikodunun kesildiğini söylemek, bugün güneş doğmadı demek kadar yersiz bir sözdür [Kazancı A. Üvey anne. 114].

Tarjimasi: Agar qaysidir mahallada mish-mish to‘xtadi deyilsa, demak, o‘sha yerda quyosh chiqmadi [A.L.Qozonchi. Eng sara asarlari. 86].

Tarjimasi: Birorta mahallada mish-mish to‘xtadi deyish – bugün quyosh chiqmadi, deyish bilan barobar [A.L.Qozonchi. O‘gay ona. 81].

Yozuvchi yuqoridagi gapda o‘xshatish asosida gapni yanada ma‘nosini bo‘rtirishga harakat qilgan va bu madsadiga erishgan. Birinchi tarjimada o‘xshatish umuman yo‘q bo‘lib ketgan, ikkinchi tarjimada esa muallif yozgandek o‘xshatish san’ati saqlab qoling.

Her gün efendi efendi, elinde çantasıyla okula gidiyor [Kazancı A. Üvey anne. 129].



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th May, 2025

Tarjimasi: Tilidan “xonim, afandim” tushmaydi, har kuni maktabga qatnaydi [A.L.Qozonchi. Eng sara asarlari. 98].

Efendi so‘zi janob, xonim va afandi so‘ziga to‘g‘ri keladi. Lekin bu gapda unday ma‘no ishlatilmagan. Efendi efendi odob bilan, esli-xushli ma‘nosida ishlatilgan. Bir so‘zni xato qilish bilan bitta gap boshqacha ma‘noni o‘zida kasb qilishi mumkin. Asliyatda tilidan degan so‘zning o‘zi aslida yo‘q. Bu gapni quyidagicha tarjima qilganda asliyatdagi ma‘noni bera olgan bo‘lar edi: har kun odom bilan qo‘lida sumkasi maktabga qatnaydi. Quyiagi gapda ham xuddi shunday xatolikka yo‘l qo‘yilgan. Ya! Bu so‘z o‘zbek tilidagi yo‘g‘ey so‘ziga to‘g‘ri keladi, lekin tarjimon bu so‘zni yana deb tarjima qilgan, bu qo‘pol xato bo‘lmasa ham, xato hisoblanadi. Imam-Hatip Okulu’nda.

Yaa! [Kazancı A. Üvey anne. 135].

Tarjimasi: – Imom Xatib maktabida

Yana!.. [A.L.Qozonchi. Eng sara asarlari. 104].

Yuqoridagi gapni quyidagicha tarjima qilish maqsadga muvofiq bo‘lar edi:

Imom Xatib maktabida

yo‘g‘ey!

Sadece çalışmak için toplanmalarına rağmen bol bol konuşmuşlar, sigara içmişler, öğretmenlerin taklit ve tenkidini yapmışlar, ama esas maksada hiç yaklaşımadan dağılmışlardı [Kazancı A. Üvey anne. 148].

Tarjimasi: Faqat shu ahvolga yetib borishlariga so‘kinishib suhbatlashishlari, chekishlari, muallimlarini mazax qilishlari turtki bo‘lar va bu ishlarini asosan maktabdan uzoqda qilishardi... [A.L.Qozonchi. Eng sara asarlari. 113].

Xulosa:

Yuqoridagi gapni tarjimon asliyatga muvofiq tarjima qilmagan. Bu gapni boshidan oxirigacha boshqacha mazmunda tarjima qilingan desak ham mubolag‘a bo‘lmaydi. ama esas maksada hiç yaklaşımadan dağılmışlardı jumlasini tarjimon bu ishlarini asosan maktabdan uzoqda qilishardi shaklida tarjima qilgan. Asliyatda maktab so‘zi umuman ishtirok etmagan, nafaqat maktab so‘zi balki maktabga aloqador tushuncha ham mavjud emas. Bu jumlanı ammo asosiy maqsadlariga umuman yaqinlashmasdan tarqalishgan edilar shaklida tarjima qilganda muallif asliyatda



bayon qilgan ma'no chiqqan bo'lar edi. Yuqoridagi parchani quyidagicha tarjima qilganida maqsadga muvofiq bo'lar edi: faqat dars qilish uchun yig'ilishgan bo'lishlariga qaramasdan ancha suhbatlashishgan, sigaret chekishgan, muallimlarini taqliq va tanqid qilishgan edilar, ammo asosiy asosiy maqsadlariga umuman yaqinlashmasdan tarqalishgan edilar maqol tarjima tarjima qilindi. Bu asliyatdagi ma'noga yaqin deb hisoblandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxari:

1. Hamidov X. O'zbek-turk tarjimachiligining dolzarb muammolari. – Toshkent: 2019. – 128 b.
3. Hamidov X. Maqol va idiomalar tarjimasi muammolari. – Toshkent, 2017. 128 b.
4. Hamidov X. O'zbekchadan turkchaga nasriy tarjima muammolari. –Toshkent: ToshDSHI, 2014. – 148 b.
5. Ochilov E. Tarjimashunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent, 2014. – 227 b.
6. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1992. – 660 b.
7. Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. – Toshkent: O'qituvchi, 1978. 258 b.
8. Salomov G'. Til va tarjima. – Toshkent: Fan, 1966. – 384 b.
9. Salomov G'. Rus tilidan maqol, matal va idiomalarni tarjima qilish masalasiga doir. – Toshkent: Fanlar akademiyasi nashriyoti, 1961. – 78 b.
10. Salomov G'. Tarjima tashvishlari. – Toshkent, 1983. – 192 b.
11. Salomov G'. Tarjimon mahorati. – Toshkent: Fan, 1979. – 196 b.
12. Salomov G'. Rus tilidan o'zbekchaga maqol, matal va idiomalarni tarjima qilish masalalariga doir. – Toshkent: Fan, 1961. – 201 b.
13. Ahmet Lütfi Kazancı. Üvey anne. – İstanbul: Ensar Neşriyatı, 2017. 231 s.
14. Ahmad Lutfi Qozonchi. Eng sara asarlari. – Toshkent: Book Media Nashr, 2020. – 592 b. (Tarjimon: Shahnoza muhammadiyeva)